

ROMAN JANRINING TAKOMILLASHUVI

Ubaydullayeva Jamila Xurramovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi,

Ko‘charova Dildora Karim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Boshlang‘ich ta’lim va sport
tarbiyaviy ishi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Maqolada roman janrining mif va mifopoetika bilan aloqadorligi, mifologik obrazlarning o‘zbek romanchiligidagi va jahon romanchiligidagi qay holda berilishi, romanlarda mifologik obrazlarni ifodalash borasida dastlab kimlar ish olib borganligi haqida izlanish olib borildi.

Kalit so‘zlar: roman, mif, obraz, mifopoetika, afsona, jahon adabiyoti, milliy romanchilik. Roman janri taraqqiyotida folklor an’anasining ta’siri mavjudligi shubhasiz ekan, bu hol barcha milliy adabiyotlarga xos tipologik hodisa, buni shunchaki tasdiqlashni emas, balki bu masala janr imkoniyatlari va uslub rangbarangligini ta’minalash yo‘llari har bir muayyan davrda o‘ziga xos kechishini kuzatish, tadqiq qilishni ham talab etadi. Bu, albatta, har bir xalq adabiyotining rivojlanish darajasi bilan, uning ichki imkoniyatlari, ijodkor iste’dodi, folklor namunalarini badiiyatini o‘zlashtirishi, uning imkoniyatlarini nechog‘liq his qilib, amaliyotga tadbiq qila bilish mahorati bilan bog‘liqdir. Shu ma’noda adabiyotshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlar konkret ijodkorlarning xalq og‘zaki badiiy ijodidan o‘z badiiy-estetik tafakkuri doirasida ta’sirlanishi, shakliy – uslubiy izlanishlarida aks ettirishi masalasini o‘rganishda o‘ziga xos nazariy-metodologik tayanch vazifasini o‘tashi shubhasiz. Xalq og‘zaki ijodining epik janrlari: epos, doston va ertaklar romanga xos epik tafakkur shakllanishi uchun zamin bo‘lgan. Bunday an’anaga asoslanish, yohud undan ta’sirlanish nafaqat XX asr boshlaridagi romanning shakllanishi davriga, balki janr takomilining keyingi bosqichlariga, jumladan, tadqiqot obyektimiz bo‘lgan romanlar uslubiga ham xos xususiyatdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, romanchilik tajribasida folklor janrlari, xususan, mif va ertakning ta’siri uzoq davr davom etishi o‘zbek romanining milliy o‘ziga xosligini ta’minalab, imkoniyatlarini ancha kengaytirar ekan. XX asr o‘rtalaridagi Yevropa romanchiligidagi mif va folklor an’alarining kuchayishi barobarida folklorizmning yangicha shakl va yo‘nalishlari rivojlanganligi ham ko‘rinadi. Asar qahramonlari ma’lum ma’noda romanga asos qilib olingan folklor va mif motivining ishtiroychilariga aylanadilar. Endi mifologizmlar roman mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi badiiy - estetik asosga aylanadi. Mif qahramonlari asarda o‘z hayoti bilan yashaydi, binobarin, badiiy asar syujeti ham mifologik asarining qayta hikoya qilingan varianti emas, balki bugungi kun voqealari tasviridan iborat struktural birlikdir. Bu tip romanlarni tushunish va qahramonlar harakati zamiridagi ma’noni

anglash uchun kitobxon avvalo mif motivlaridan xabardor bo'lishi kerak. Xususan, Tomas Mann qahramoni Gans Kastorp o'z xarakteriga munosib ravishda ish tutmaydi, balki u folklordagidek o'zi ham davolovchi, ham mijoz sifatida gavdalanadi.¹ U o'zini o'zi davolash orqali kata ilmiy haqiqatni ochmoqchi bo'ladi. Biroq, uning barcha harakatlarini qahramonning "mifik o'tmishi" boshqarib turadi. Buyuk nemis adibi boshlab bergen bu an'ana, ya'ni romanga mif va folklor motivlarini olib kirish jarayoni tez orada butun Yevropa adabiyotida yetakchi badiiy taomilga aylandi. Ma'lum vaqtdan keyin hatto okean ortiga ko'chib o'tib, AQSH va Lotin Amerikasi mamlakatlari romanchiligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. XX asr Amerika romanchilik maktabining yirik vakillaridan biri U.Folkner ijodida folklor motivlariga asoslangan romanlar o'zining yangi qiyofasini kasb eta boshladi. Uning "Rivoyat" romani nasroniylik dinining tarixi, jumladan, Iso Masih hayotiga bag'ishlangan. Bu asar tarixiylikdan ko'ra ko'proq Injil mifologiyasi asosiga qurilgan syujet tizimi bilan xarakterlanadi. Romanda talqin qilinishicha, Iso Masih bugunning qahramoni, biroq muallifning nazdida, u o'zidagi barcha payg'ambarlik sifatlarini saqlagani holda hozir hayot bo'lganida ham, uning umri xochga mixlanish bilan yakunlangan bo'lardi. Chunki uning qismatida, birinchidan, taqdir hukmi aks etgan, ikkinchidan, atrofidagi olomon uning buyukligini va ilohiy qudrat sohibi ekanligini tushuna olmagani sababli ham ayni mana shu motiv roman xulosasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shuning uchun ham bu asar "xarakterlar romani" emas, balki taxayyul po'rtanasi aks etgan g'oyalar romani, falsafiy tafakkur va uning zamonaviy talqinlarini o'zida aks ettirgan asar sifatida baholandi. U.Folkner o'z romanini ongli ravishda "pritcha" (rivoyat) deb atash bilan Injil rivoyatidan bugungi kun uchun zarur bo'lgan falsafani topib tasvirlagan.² XX asrning 20 - yillariga qadar yaratilib, o'z davridayoq Koshkin rahbarligidagi tarjimonlik maktabi vakillari tomonidan rus tiliga o'girilgan bo'lsada, sho'ro siyosati mafkurasining zug'umi tufayli nashr etilishi to'xtatib qo'yilgan irland yozuvchisi Jeyms Joysning "Uliss" romani o'zbek tiliga tarjima etilishi bilanoq matbuotda u haqda ayrim mulohazalar e'lon qilindi. Jumladan, Xurshid Do'stmuhhammadning "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan bir maqolasida ushbu asarni o'zbek romanlari bilan bog'lashga intilish tamoyili yaqqol sezilib turishi e'tiborlidir. Ayni roman muallifi XX asrning o'rtalaridayoq Frans Kafka bilan birgalikda jahon modernizmining "otasi" sifatida talqin etila boshlagan edi.³ Chunki o'n sakkiz epizoddan iborat bu romanda tasvirlangan voqealarning aksariyati qadimgi yunon mifologiyasi va folklori asosiga qurilgan. Telemax, Siklop, Penelopa kabi mifologik personajlarning yangicha talqindagi ifodasi tufayli asarning syujet va kompozitsiyasida ilgarigi romanlarda kuzatilmagan o'ziga xos badiiy

¹ Ленц З. Настоящее и будущее литературы / Судьбы романа. – М.: Прогресс, 1975. – С. 245.

² Грибанов Б. Фолькнер. – М.: Молодая гвардия, 1976. – С.314-315.

³ Дудова Л.В., Михальская Н.П., Трыков В.П. Джеймс Джойс: мифотворец XX века / Модернизм в зарубежной литературе. – М.: Наука, 2001.

qurilmalari yuzaga keldi. Mohiyatan bu roman butunicha mifologik tafakkur asosiga qurilgan bo‘lib, adib zamonaviy mavzuni mifik tasavvur ko‘lamida tasvirlash yo‘lidan boradi.

Hozirgi o‘zbek adabiyoti an’anaviy ildizlari bilan chambarchas aloqada ekanligi bugungi romanlarimiz qatlariga nazar tashlash orqali ham oydinlashadi.

Ajdodlarimiz samoviy tasavvurlari to‘g‘risidagi mifologik qarashlari muayyan darajada o‘rganilgan.⁴ Ularda mifopoetik tafakkur va olamning tuzilishi haqidagi tasavvurlarga alohida e’tibor qaratilgan, ajdodlarimizning e’tiqodiy tasavvurlari mohiyatini izohlashda muhim xarakter kasb etishini ta’kidlashgan. Folklorshunos olim M.Jo‘rayev kosmogonik miflar asosida yuzaga kelgan samoviy afsonalar syujetining tarixiy asoslarini va motivlar tizimini sinchiklab o‘rganar ekan, ularning matniga asos bo‘lgan birlamchi mifologik tasavvurlarning rudiment (qoldiq- A.N.) holda saqlanib qolgan talay unsurlarini aniqlash, tasrif qilishga muvaffaq bo‘lgan.⁵ Olimning ta’kidlashicha, samoviy afsonalar qadimiylar va mifologik tasavvurlar asosida yuzaga kelgan og‘zakihikoyalar bo‘lib, etiologik miflarning talqinlarini badiiy tafakkur qonuniyatları vositasida bayon qiladi. Badiiy-estetik mohiyat kasb etgan verbal shakldagi samoviy afsonalar o‘ziga xos shakllanish hamda takomillashish bosqichini o‘tagan. Samoviy asotirlar va mifologik qarashlar asosida yuzaga kelgan e’tiqodiyishonchlar bugungi kunda nafaqat xalq an’anaviy marosim, rasm-rusumlari, balki uning tafakkur tarzida ham saqlanib qolgan. Xususan, roman poetikasi va uslubida kuzatiladi.

Demak, bugungi kunda o‘zbek romanchiligi o‘z taraqqiyotining polifonik bosqichiga yetib keldi. Endilikda, mavzuning dolzarbligi, voqealarning qiziqarli yoxud tilning shirali ekani romanni o‘qishli qilgani holda, uning umrzoqligini ta’minlay olmasligi mumkinligi anglab yetildi. Zamonaviy o‘zbek romani muallifidan har bir qahramonini tushunish va aks ettirishning birovnikiga mutlaqo o‘xshamaydigan konsepsiyasiga ega bo‘lish talab qilinadi. Umumlashtirib aytganda, zamonaviy o‘zbek romanchiligidagi romaniy tasvirning yangicha qatlamlari o‘zlashtirilib, milliy romanchilik yangi timsollar bilan boyib borayotgani kuzatiladi. Shu bilan birga zamonaviy romanlarimizda mif salmog‘i ham ortib bormoqda. Bu esa yuqorida aytganimizdek, mifopoetika sohasining rivojiga xizmat qilmoqda. O‘zbek romanlariga ham jahon adabiyoti romanlaridan na’muna olib, yangicha shakl va uslubiy vositalar orqali kirib kelgan. Ayrim romanlarda diniy motivlari, mifik obrazlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri tasviri berilsa, ba’zi asarlarda Xizr, azroil, shayton kabi an’anaviy obrazlarga murojaat qilish orqali yozuvchi o‘z badiiy niyatini amalga oshirishga erishadi. Zamonaviy mavzuga

⁴ Крейнович Е.А. Очерк космогонических представлений гиляков. Сахалин. // Этнография, 1929. №1; Кариновская Л.Э. Представления алтайцев о вселенной. // Советская этнография. 1935 №4-5; Анисимов Л.Ф. Космологические представления народов Севера.

⁵ Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида «сехрли» ракамлар. –Тошкент, 1991. –106-126 б.; Ўша муаллиф. Етти ҳомийнинг мифологик асосларига доир// Адабиймерос. 1989, №2, 65-69-бетлар; Ўзбек халқ самовий афсоналари. –Тошкент: Фан, 1995; Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. –Тошкент: Фан, 2001.

bag‘ishlangan romanlarda bunday shayton va inson munosabatlarining tasvirlanishi asar syujet qurilishiga afsona va rivoyatlarning olib kirilishi bilan bog‘liqdir. Noreal voqealarning bayon etilishi va folklor motivlarining qo‘llanilishi bevosita muallif nutqi orqali ham asarga kiritilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ленц З. Настоящее и будущее литературы / Судьбы романа. – М.: Прогресс, 1975.
2. Грибанов Б. Фольклер. – М.: Молодая гвардия, 1976.
3. Дудова Л.В., Михальская Н.П., Трыков В.П. Джеймс Джойс: мифотворец XX века / Модернизм взарубежной литературе. – М.: Наука, 2001
4. Крейнович Е.А. Очерк космогонических представлений гиляков. Сахалин. // Этнография, 1929. №1; Кариновская Л.Э. Представления алтайцев о вселенной. // Советская этнография. 1935 №4-5; Анисимов Л.Ф. Космологические представления народов Севера.
5. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида«сехрли» рақамлар. –Тошкент, 1991. –106-126 б.
6. Жўраев М. Етти ҳомийнинг мифологик асосларига доир// Адабиймерос. 1989,
7. Жўраев М Ўзбек халқ самовий афсоналари. –Тошкент: Фан, 1995;
8. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. –Тошкент: Фан, 2001.